




**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

The top half of the cover features a background image of a business meeting. A person in a suit is visible, with a large, semi-transparent blue and white line graph overlaid on the scene. The graph shows an overall upward trend with some fluctuations. A large, 3D-style blue arrow points upwards and to the right, starting from the bottom left and ending near the top right.

**QASHQADARYO  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQARISHI**  
2022- YIL YANVAR-APREL OYLARI  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-aprel oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6120,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 69,0 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,9 % ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 484,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 98,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- aprel oylari	2022- yil yanvar- aprel oylari	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	48,6	6,2	-42,4
Neft, ming t.	417,7	6,8	-410,9




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel oylari	2022- yil yanvar-aprel oylari	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	75,7	234,9	159,2
Gaz kondensati, ming t.	50,5	38,1	-12,4

Yanvar-aprel oylari yirik korxonalar boʻyicha


Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4225,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 104,9 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,0 % (21,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 1,9 % (1,7 %) va quyi texnologiyalisi – 45,0 % (41,0 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 12,7 % (2021- yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,6 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 168,6 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,9 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,5 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,7 %), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,4 %), ni tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da \*


#### Tabiiy qumlar




#### Gaz kondensati




#### Tabiiy gaz



#### Neft



#### Propan, Butan



#### Chaqiq tosh




\* Yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo‘yicha

Yumshoq bug'doy uni




Aroq




Uzum vinosi




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 46,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 94,7 % ) ni, 10,8 ming tonna kalava ip (100,7 % ) ni, 23,6 ming tonna paxta tolasi (54,8 % ) ni hamda 792,4 ming litr aroq mahsulotlari (108,5 % ) ni, tashkil etdi.


### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- aprel oylari	2022- yil yanvar- aprel oylari	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	49,5	46,9	-2,6
Paxta tolasi, ming t.	40,2	23,6	- 16,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,6	2,3	0,7


Yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha

### Metallurgiya sanoati

2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 5,9 m. ni tashkil etgan, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,2 %, fizik hajm indeksi esa, 105,5 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 7,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 78,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 25,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 81,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 776,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 119,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 42,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 25,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 148,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 68,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1753,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 87,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 %, fizik hajm indeksi 112,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 138,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-aprel oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,9 % ni, fizik hajm indeksi 100,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1338,6 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



### Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-aprel oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 83,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 100,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 18,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-aprel oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 84,5 % tashkil etgan,.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 124,7% ga oshib, ishlab chiqarish hajmi 6,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




### Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-aprel oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 99,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 14,1 m. ga oshib va ishlab chiqarish hajmi 7,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-aprel oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 108,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 195,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 18,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2021- yil yanvar-aprel oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni, fizik hajm indeksi esa 146,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi 102,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1374,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 22,4 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 94,6 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4636,9	3754,9	-882,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1112,7	1094,3	-18,4

yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 36,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	3862,3	4084,9	222,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	16250,6	16950,6	700,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 5,8 % ga hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 4,3 % ga oshganligi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1158,9 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 18,9 % ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-aprel oylari

63,6%

2022- yil  
yanvar-aprel oylari

64,2%

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-aprel oylari

36,4%

2022- yil  
yanvar-aprel oylari


35,8%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 6,1 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 4,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 30,8 % ni va Koson tumani 8,9 % ni, Yakkabog' tumani 7,2 % ni, Chiroqchi tumani 6,8 % ni, Kitob tumani 6,2 % ni, hamda Shahrisabz shahri 5,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (104,6 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yakkabog' tumanida (110,5 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 23,8 % ni shuningdek, Yakkabog' tumani 8,3 % ni, Koson tumani 9,6 % ni, Shahrisabz shahri 7,7 % ni va Kitob tumani 7,0 % ni tashkil etdi.



1057,7 mlrd. so'm


2020-yil yanvar-aprel

1072,8 mlrd. so'm

2021-yil yanvar-aprel

1158,8 mlrd. so'm

2022-yil yanvar-aprel



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

96,8 %

2021-yil

111,0 %

2022-yil

104,6 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 14,4 % ni, Koson tumani 11,9 %, Kitob tumaniga 9,0 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 7,8 % ni tashkil etdi.

423,7 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-aprel

390,0 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-aprel

415,0 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm



## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 30,8 % ni, shuningdek, Yakkabog' tumani 9,9 % ni, Koson tumaniga esa 8,9 % ni tashkil etdi.



634,1 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-mart

682,8 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-mart

415,0 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi

64,2%

100,3 %

2020- yil

108,8 %

2021- yil

104,8 %

2022- yil

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

**Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nison tumaniga to'g'ri kelib, 21,1 % ni, shuningdek, G'uzor tuman 17,5 % ni, Qarshi shahar esa 14,0 % ni tashkil etdi.

**Qashqadaryo viloyat**

2020- yil

3979,9 mlrd. so'm

2021- yil

5746,0 mlrd. so'm

2022- yil

6120,5 mlrd. so'm



2020- yil


89,6 %

2021- yil

128,9 %

2022- yil

105,3 %




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (8105,4 ming so'm), G'uzor (5040,7 ming so'm), Qarshi shahri (3013,6 ming so'm), Kasbi tumanida (2561,2 ming so'm), Muborak tumanida (2156,6 ming so'm), Mirishkor tumanida (2031,7 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1791,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1210,8 ming so'm

2021- yil

1719,3 ming so'm

2022- yil

1791,8 ming so'm



2020- yil

87,8 %

2021- yil

127,7 %

2022- yil


103,0 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1307,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1138,2 mlrd. soʻm

2021- yil

1105,2 mlrd. soʻm

2022- yil

1307,8 mlrd. soʻm



2020- yil 28,6 %


2021- yil 19,2 %

2022- yil 21,4 %

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 339,8 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 968,5 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 627,4 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 448,0 ming so'mni va Nishon tumanida – 363,4 ming so'mni tashkil etdi.

**Qashqadaryo viloyati**



*o'sish sur'ati*

*ming. so'm*

## Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4925 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 898 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,2 % i) Qarshi shahriga, 542 tasi (11,0 %) Kitob tumaniga, 435 tasi (8,8 %) Yakkabog' tumaniga, 434 tasi (8,8 %) Chiroqchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

